


2024-yilning yanvar– iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 40 209,7 mlrd. soʻmni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan 108,4 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 11,6 % ga oʻsib, 18 096,8 mlrd. soʻmni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 45,0 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi (avto savdo va ovqatlanishni qoʻshmagan holda) tarkibi, foizda (2024- yil yanvar–iyun holatiga)




2024-yilning yanvar–iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari boʻyicha quyidagicha ifodalanadi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega boʻlgan Chilonzor tumani 17,9 %, Shayxontohur tumani 11,1 %, Yunusobod tumani 10,8 %, Uchtepa tumani 9,4 %, Yashnobod tumani 8,3 %, Yakkasaroy tumani 8,0 %, Mirobod tumani 7,8 %, Mirzo Ulugʻbek tumani 7,5 %, Olmazor tumani 7,5 %, Sergeli tumani 6,5 % ni tashkil etgan boʻlsa, Bektemir tumani 3,8 %, Yangihayot tumani 1,4 % bilan eng past koʻrsatkichni qayd etdi.




Tumanlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda

2024 -yil yanvar – iyun oylarida



Chakana savdo tovar aylanmasining tumanlar kesimida o'sish sur'ati, foizda

2024 -yil yanvar – iyun oylarida




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasi barcha tumanlarda o'sish kuzatilgan, jumladan eng katta o'sish sur'ati Mirobod tumani 112,9 %, Yakkasaroy tumani 111,7 % va Mirzo Ulug'bek tumani 111,4 % bilan Toshkent shahrida yetakchilik qilmoqda, o'sish sur'ati nisbatan pastroq ko'rsatkichlar: Uchtepa tumani 107,2 %, Yunusobod tumani 104,9 %, Chilonzor tumani 104,9 % ni tashkil etgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 4 749,4 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati 115,4 % ni tashkil etgan. Ichki savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 3,1 % ni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Shayxontohur tumani 25,1 %, Yunusobod tumani 13,2 % , Mirzo Ulug'bek tumani 10,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yangihayot tumani 1,6 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Tumanlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi ulushi, foizda 2024 -yil yanvar – iyun oylarida



Avto savdo va ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 13,1 mln. so'mni tashkil etdi. O'rtacha aholi jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Chilonzor tumani (26,1 mln. so'm), Bektemir tumani (24,6 mln. so'm), Yakkasaroy tumani (23,9 mln. so'm), Mirobod tumani (20,6 mln. so'm), Sergeli tumani (15,5 mln. so'm) kuzatildi.



Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi
(2024-yil yanvar- iyun, avto savdo va umumiy
ovqatlanishni qo‘shmagan holda)


	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- iyunga nisbatan, % hisobida	ming so‘m	2023- yil yanvar- iyunga nisbatan, % hisobida
Toshkent shahar	40 209,7	108,4	13 149,0	105,6
<i>tumanlar:</i>				
Bektemir	1 517,2	110,2	24 589,6	102,0
Mirzo Ulug‘bek	3 008,3	111,4	9 047,5	109,0
Mirobod	3 145,4	112,9	20 585,1	110,9
Olmazor	2 999,1	108,4	7 381,5	106,0
Sergeli	2 620,9	109,4	15 462,7	105,7
Uchtepa	3 764,9	107,2	12 549,6	105,4
Chilonzor	7 185,4	104,9	26 081,2	103,9
Shayxontohur	4 479,5	108,0	12 228,9	106,7
Yunusobod	4 358,2	104,9	11 517,6	102,4
Yakkasaroy	3 229,7	111,7	23 923,5	106,9
Yashnobod	3 320,1	111,1	10 972,0	107,3
Yangihayot	581,1	107,9	3275,4	100,1

2024-yilning yanvar–iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 81 503,4 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning shu davriga nisbatan 109,1 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 36,9 % ga teng bo‘lib, hajmi 30 052,2 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan Olmazor tumani 13,6 %, Yashnobod tumani 13,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Yangihayot tumani 2,1 % va Bektemir tumani 1,7 % ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.


Chakana savdo kichik biznes ulushi (2024-yil yanvar-iyun oylari, tumanlar kesmida)




2024-yilning yanvar - iyun oylarida Toshkent shahrining kichik biznes ulushi chakana savdoda yuqori ulushga ega tumanlar Bektemir 85,9 foiz, Uchtepa 81,6 foiz, Chilonzor 66,8 foizga o‘sgan bo‘lib, past ko‘rsatkichga Mirzo Ulug‘bek 45,8 foiz, Yashnobod 38,1 foiz va Sergeli 36,6 foiz hissasiga to‘g‘ri keladi.



Tumanlarning ulgurji savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasidagi ulushi, foizda 2024-yil yanvar – iyun oylarida



Ulgurji savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz) tarkibi, foizda 2024- yil yanvar – iyun oylarida



Kichik korxonona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 4,4 % ga ko'payib, 51 451,2 mlrd. so'mga yetdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 63,1 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz) (2024- yil yanvar-iyun)

	<i>mld. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Toshkent shahri	81 503,4	100,0
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	1 396,4	1,7
Mirzo Ulug'bek	7 162,4	8,8
Mirobod	9 353,6	11,5
Olmazor	11 048,2	13,6
Sergeli	3 570,3	4,4
Uchtepa	4 514,7	5,5
Chilonzor	8 793,4	10,8
Shayxontohur	4 978,1	6,1
Yunusobod	8 098,5	9,9
Yakkasaroy	9 978,7	12,2
Yashnobod	10 890,5	13,4
Yangihayot	1 718,2	2,1



Yirik korxonalarining ulgurji savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasi

(2024- yil yanvar-iyun)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Toshkent shahri	30 052,2	100,0
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	729,7	1,8
Mirzo Ulug'bek	540,0	6,2
Mirobod	3 175,3	10,5
Olmazor	1869,2	16,6
Sergeli	3147,4	6,2
Uchtepa	894,0	2,4
Chilonzor	4985,6	9,6
Shayxontohur	1877,0	3,0
Yunusobod	3908,3	10,6
Yakkasaroy	4957,4	13,0
Yashnobod	2879,8	16,5
Yangihayot	1088,5	3,6

Toshkent shahrida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 18,0 % ga o'sib, 30 052,2 mlrd. so'mni va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 36,9 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo'lgan Olmazor tumani 16,6 %, Yashnobod tumani 16,5 %, Yakkasaroy tumani 13,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, Uchtepa 2,4 % va Bektemir tumanlari 1,8 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasi (2024- yil yanvar-iyun)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Toshkent shahri	18 096,8	100,0
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	214,3	1,2
Mirzo Ulug'bek	1 555,8	8,6
Mirobod	1 993,4	11,0
Olmazor	1 280,5	7,1
Sergeli	1 343,7	7,5
Uchtepa	694,4	3,8
Chilonzor	2 671,1	14,8
Shayxontohur	2 333,4	12,9
Yunusobod	1 935,3	10,7
Yakkasaroy	1 998,5	11,0
Yashnobod	1 800,5	9,9
Yangihayot	275,9	1,5

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani 14,8 %, Shayxontohur tumani 12,9 %, Yakkasaroy tumani 11,0 %, ni tashkil etgan bo'lsa, Yangihayot tumani 1,5 % va Bektemir tumani 1,2%, ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Yirik korxonalarining umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi
(2024- yil yanvar-iyun)

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Toshkent shahri	1 863,4	100,0
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	60,0	3,2
Mirzo Ulug‘bek	19,8	1,1
Mirobod	67,0	3,5
Olmazor	18,7	1,0
Sergeli	211,6	11,4
Uchtepa	-	-
Chilonzor	126,0	6,8
Shayxontohur	948,6	50,9
Yunusobod	243,4	13,1
Yakkasaroy	75,5	4,0
Yashnobod	92,8	5,0
Yangihayot	0,05	0,002

Yirik korxonalarining umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo‘lgan Shayxontohur tumani 50,9 %, Yunusobod 13,1 %, Sergeli tumani 11,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Yangihayot tumani 0,002 % eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.